

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF THE PROSECUTOR'S OFFICE IN ENSURING LEGALITY IN PUBLIC-LEGAL RELATIONS

Salomov Khumoyun

Senior Researcher Fellow at the Institute of
Legislation and Legal Policy
under the President of the Republic of Uzbekistan,
independent researcher

Abstract. This article analyzes the fundamental role of the prosecutor's office in ensuring legality in the sphere of public legal relations, the main tasks and powers of the prosecutor's office in this area, its role in the system of public administration. Opinions of leading legal scholars on this issue, and specific measures are proposed aimed at improving prosecutorial oversight, increasing its effectiveness, and adapting it to modern challenges facing the country's legal system.

Keywords: prosecutor's office, public legal relations, legality, prosecutorial oversight, Republic of Uzbekistan, human rights, legal reform.

OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI

Salomov Xumoyun Boburmirzo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti
yetakchi ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchi
E-mail: Salomov.x.b@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola ommaviy-huquqiy munosabatlar sohasida qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlarining fundamental rolini, ushbu yo'nalishda prokuraturaning asosiy vazifalari va vakolatlari, uning davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni tahlil qilingan. Prokuror nazoratini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va mamlakatning huquqiy tizimi oldida turgan zamonaviy muammolarga moslashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni taklif etilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura organlarining ahamiyati, ommaviy-huquqiy munosabatlar, qonuniylik, prokuror nazorati, inson huquqlari, huquqiy islohot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N73>

Kirish. Hozirgi jamiyat va davlatning jadal rivojlanishi, huquqiy demokratik davlat barpo etish sharoitida qonuniylikni ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvi, ma'muriy huquq, moliya huquqi, konstitutsiyaviy huquq va boshqa sohalarni qamrab oluvchi ommaviy-huquqiy munosabatlar har qanday huquqiy davlat faoliyatining asosi hisoblanadi. Aynan shu sohada normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari himoya qilinishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bu xususida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir" deb atalgan nutqlarida: "Prokuratura organlari kundalik hayotimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, yuridik va jismoniy shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi zarur" deb ta'kidlaganlar [1].

Haqiqatdan ham Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasini faol amalga oshirayotgan davlatimizda ommaviy-huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlarining roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Procuratura organlari tizimi qonuniylik barqarorligini kafolati, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yish mexanizmi, buzilgan huquqlarni tiklovchi subyekt hisoblanadi.

Ommaviy-huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta'minlash jarayonida prokuratura organlarining o'rni va ahamiyati

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga muvofiq davlat organlari tizimida o'ziga xos maqomga ega. Ushbu tizimning asosiy vazifasi barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilishdan iborat. Ushbu universal vakolat prokuraturaga hokimiyatning hech bir tarmog'iga kirmaydigan, lekin ularning barchasi ustidan nazoratni amalga oshiradigan mustaqil nazorat organi sifatida harakat qilish imkonini beradi [2].

Ommaviy-huquqiy munosabatlar kontekstida prokuratura quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish yo'nalishi – davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilayotgan hujjatlarning qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish, qarorlar qabul qilish tartib-taomillariga rioya etilishini nazorat qilish, hokimiyatni suiiste'mol qilish va mansab vakolati doirasidan chetga chiqish hollarining oldini olishni o'z ichiga oladi.

Birgina, 2024-yilda prokuratura organlari tomonidan **1 ming 700 dan ortiq o'rganish** va tekshirishlar o'tkazilgan bo'lib, ular bo'yicha **168 mingdan ziyod** ta prokuror nazorati hujjatlari qo'llanilgan. Jumladan, **46 mingga yaqin** qonunga zid hujjatlarga protest, qonunbuzilishi sabablarini bartaraf etish borasida tegishli idoralarga taqdimnomalar, **1 trln. so'mdan ortiq** zararni undirish haqida sudlarga **27 mingdan ziyod** arizalar kiritilib, **400 ming nafarga yaqin** shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishiga erishilgan [3].

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo'nalishi- Procuratura fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, ularning huquqlari buzilganligi faktlari bo'yicha tekshiruvlar o'tkazadi, ularni tiklash, shu jumladan sudga murojaat qilish orqali tiklash choralari ko'radi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash yo'nalishi – Procuratura korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy subyektlaridan biri bo'lib, ommaviy boshqaruv asoslariga putur yetkazuvchi talon-torajlik, o'zlashtirish va boshqa mansabdorlik jinoyatlari faktlarini aniqlaydi va tekshiruv o'tkazadi.

Sudlarda davlat manfaatlarini ifodalash yo'nalishi – Davlat yoki jamoat manfaatlari buzilgan hollarda prokuratura da'vogar yoki uchinchi shaxs sifatida sud protsesslarida ishtirok etadi va qonuniylikni himoya qiladi.

Huquq ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish yo'nalishi – Prokuror nazorati amaliyoti va huquqiy tartibga solishda aniqlangan bo'shliqlarga asoslanib, prokuratura qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritishi mumkin [4].

Afsuski, O'zbekistonda ommaviy-huquqiy munosabatlarning barcha jihatlarini tizimli ravishda aks ettiruvchi umumlashtirilgan statistik ma'lumotlar tizimlashtirilmagan hamda (masalan, ma'muriy nizolar soni, fuqarolarning turli davlat organlariga murojaatlari soni, davlat xaridlari hajmi, chiqarilgan ma'muriy hujjatlar soni va boshqalar) jamoatchilikka tarqoq holda taqdim etilmoqda.

Ommaviy-huquqiy munosabatlarda prokuraturaning rolini chuqurroq tushunish uchun O'zbekiston Respublikasidagi mavjud vaziyatni tavsiflovchi statistik ma'lumotlarga murojaat qilish lozim. Bunday ma'lumotlarning ochiqligi va foydalanish imkoniyati huquqiy davlatning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Fuqarolarning prokuratura organlariga murojaatlari asosida — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ma'lumotlariga ko'ra, har yili davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishi bilan bog'liq ko'plab murojaatlar qayd etilmoqda. Masalan, 2024-yilda prokuratura organlariga kelib tushgan barcha murojaatlarning 70 foizdan ortig'i yoinki 187 mingga yaqini davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatida qonuniylikka rioya etilishi masalalariga taalluqli ekanligi qayd etilgan [5]. Bu esa aholining o'z huquqlarini himoya qilishda so'nggi instansiya sifatida prokuraturaga bo'lgan ishonchi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Bu ko'rsatkichlar, garchi to'liq bo'lmasa-da, ommaviy-huquqiy munosabatlarning ko'lamini ko'rsatadi va ushbu sohalarida qonuniylikni ta'minlash jarayonida prokuratura faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Ushbu yo'nalishda prokuratura organlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida huquqshunos professorlar B.Pulatov [6] va E.Xojiyev [7] quyidagi fikrlarni bildirishgan, o'tish davri iqtisodiyoti va shakllanayotgan huquqiy davlat sharoitida prokuratura qonun buzilishiga tezkorlik bilan munosabat bildirishga, fuqarolarning huquqlari va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lgan ajralmas institut ekanligini ta'kidlaydilar. Ular prokuror nazoratining universal xarakterga ega ekanligi, uning mustaqilligi va jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga e'tiborni qaratadilar. Ularning fikricha, prokuratura "davlatning ko'zi" va "qonuniylik posboni" bo'lib, ijro hokimiyati va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi muhim institut sifatida ta'rif berishgan.

Rus huquqshunos olimi O.Voroninga ko'ra, Prokuror nazorati davlat hokimiyatining alohida organi nomidan emas, balki bevosita davlat nomidan, qonuniylikni ta'minlash yo'nalishida faoliyat olib boruvchi yagona nazorat organi hisoblanadi. Prokuror nazorati o'z-o'zidan hokimiyatning alohida tarmog'i hisoblanmaydi, prokuror o'zining nazorat faoliyatini jamiyatning deyarli barcha jabhalarni qamrab olgan holda ro'yobga chiqaruvchi subyektdi degan fikrlarni ilgari surgan [8].

Bizning fikrimizcha ham, ommaviy-huquqiy munosabatlarning rivojlanish davrida, ayniqsa, mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlarining fundamental va ajralmas roli to'g'risidagi pozitsiyani qo'llab-quvvatlab, prokuraturadagi keng nazorat vakolatlarini saqlab qolish zarurligiga qo'shilgan holda, bu

vakolatlar aniq tartibga solinishi, yo'naltirilgan, manzilli qo'llanilishi orqali yalpi nazoratga chek qo'yish bilan huquqiy davlat qurish yo'lidagi strategik maqsadlarga erishish mumkin.

Yevropa mamlakatlarida tarixan bunday "umumiy prokuror nazorati" konsepsiyasi unchalik rivojlanmagan. Masalan, Fransiya va Germaniya kabi kontinental huquq tizimiga mansub mamlakatlarda XIX asrdanoq prokuraturaning ma'muriy boshqaruv ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat funksiyasi cheklangan yoki sudlar yurisdiksiyasiga o'tkazilgan. Bundan ko'rinadiki, prokuror nazoratining huquqiy tabiati turli yurisdiksiyalarda turlicha talqin etilgan: u ayrim huquqiy tizimlarda mustaqil nazorat organi (prokurorlik) sifatida, boshqalarda esa asosan jinoiy ta'qib doirasida faoliyat yurituvchi, ma'muriy sohada esa faqat belgilangan holatlarda ishtiroki ta'minlanuvchi organ sifatida namoyon bo'ladi.

Aksariyat holatlarda prokuror atamasining ilmiy-huquqiy tabiati va lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda "g'amxo'r" individ sifatida "jamoat manfaatini himoya qilish" vazifasi doirasida tushuniladi. Masalan, Vengriya Respublikasi prokuraturasi o'z vazifalarini ta'riflar ekan, **jamoat manfaatlarini himoya qilish** prokuraturaning asosiy funksiyalaridan biri ekanini qayd etadi va shu boisdan **jinoiy jarayonlardan tashqari hollarda ham** prokuratura belgilangan tartibda ishtirok etishini belgilagan. Jumladan, Vengriyada prokuratura organlari ma'muriy va fuqarolik huquqbuzarliklar yuzasidan, ayniqsa bolalar va voyaga yetmaganlar huquqlari, iste'molchilar manfaati va atrof-muhit muhofazasi buzilganda chora ko'radi [9].

Demak, bu kabi mexanizm orqali davlat ayblovdchilari ma'muriy jarayonlarda jamoatchilik uchun ahamiyatli bo'lgan huquqlar buzilgan holatlarda qonuniylikni ta'minlash uchun tegishli talablarni belgilashi mumkinligini inobatga olib, ommaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati dinamik va doimiy rivojlanib boruvchi soha tariqasida yondashish maqsadga muvofiq.

Ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda ommaviy huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlarining ahamiyatini oshirishga qaratilgan bir qator takliflar ishlab chiqildi, ya'ni:

- Prokuratura organlarida yagona tahliliy platformani yaratish bilan turli davlat organlarining ma'lumotlarini (statistika, fuqarolarning murojaatlari, tekshiruv natijalari, sud qarorlari) birlashtiruvchi integratsiyalashgan axborot tizimini ishlab chiqish prokuratura organlariga ommaviy-huquqiy sohadagi huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, tizimli muammolarni aniqlash va xavf-xatarlarni prognoz qilib borish imkoniyatini yaratadi.

- Umumiy tekshiruvlardan voz kechgan holda xavf-xatarlar tahliliga asoslangan maqsadli tekshiruvlar o'tkazish orqali qonuniylikni ta'minlab borish bilan prokuratura resurslarini huquqbuzarliklar ehtimoli eng yuqori bo'lgan eng zaif sohalar va obyektlarga (masalan, davlat xaridlari, subsidiyalarni taqsimlash, tabiiy resurslardan foydalanish) yo'naltirish uchun shart-sharoit yaratadi.

- Prokuratura organlari ommaviy-huquqiy munosabatlar sohasidagi nazorat faoliyati natijalari to'g'risida aniqlangan qoidabuzilishlar, ular bo'yicha ko'rilgan choralar va erishilgan natijalarni ko'rsatgan holda yanada batafsil tahliliy hisobotlarni muntazam ravishda e'lon qilib borishi lozim. Bu esa jamoatchilikning xabardorligi va prokuraturaga bo'lgan ishonchini oshiradi.

- Prokuratura organlari xodimlarini ommaviy-huquqiy munosabatlarning ayrim yo'nalishlari bo'lgan ma'muriy huquq, moliya huquqi, yer huquqi bo'yicha ixtisoslashtirish

tizimini joriy etish, maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan professional xodimlarga ega bo'lishi, prokuratura organlariga nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

- Prokuratura faoliyatiga zamonaviy IT-texnologiyalarni joriy etish, ya'ni prokuratura xodimlarini yangi axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, xususan sun'iy intellekt dasturlari bilan ishlash tartibini joriy etish qonuniylikni ta'minlash yo'nalishi bo'yicha nostandart fikr va mulohaza yuritishni shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirgan holda xulosa qiladigan bo'lsak, prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi ommaviy-huquqiy munosabatlarida qonuniylikni ta'minlashda asosiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan tizimdir, konstitutsiyaviy tuzumning kafolati, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyachisi hisoblanadi. Ularning faoliyati huquqiy demokratik davlat qurish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbekistonning jadal rivojlanishi sharoitida mustaqil prokuror nazoratini ommaviy-huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta'minlash sohasining dolzarbligi va uning ahamiyatini tasdiqlamoqda. Shu bilan birga, samaradorlikni yanada oshirish va zamonaviy tahdidlarga moslashish uchun prokuratura o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishi kerak. Taklif etilgan modernizatsiya choralari, jumladan, tahliliy funksiyani kuchaytirish, shaffoflikni oshirish, boshqa organlar bilan hamkorlikni optimallashtirish, kadrlar ta'minotini yaxshilash va profilaktika funksiyasini rivojlantirish prokuraturaga o'z vazifasini yanada samarali bajarish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir" 07.01.2017-yil prokuratura organlari xodimlari kuni oldidian so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi 08.01.2017-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <http://lex.uz/docs/6445145>
3. <https://prokuratura.uz/#/ochiqmalumot>
4. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida" 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonuni/ <http://lex.uz/docs/106197>
5. <https://www.facebook.com/aoka.uz/videos/%D0%B1%D1%80%D0%B8%D1%84%D0%B8%D0%BD%D0%B3/9077024452380452/>
6. B.X.Po'latov –Prokuror nazorati. Darslik. -Toshkent, O'zbekiston. 2009. -B. 133-134.
7. E.Xojiyev, Sh.Shayzakov. Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi (2019, № 4 (40))
8. Воронин О.В. О сущности современного прокурорского надзора // Уголовная юстиция. 2018. № 11. С. 183–189.
9. <https://ugyeszseg.hu/allampolgaroknak/legfontosabb-tudnivalok/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).